

CHECHAK VIRUSI TARIXI

Abduxalilov Asilbek Toxir o‘g‘li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash ishi fakulteti 211-guruh talabasi,

To‘rayeva Umida Shakar qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti 211-guruh talabasi,

Abdullayeva Gulsanam O‘tkirjon qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya fakulteti 208-guruh talabasi

Ishning maqsadi: Yaqin tarixda tugatilgan va undan oldin dunyo aholisining yarim milliardga yaqinini qirib tashlagan, ayrim sivilizatsiyalar yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelgan ammo shu bilan birga tibbiyotni birmuncha rivojlanishiga sabab bo‘lgan virusli infeksiya chin chechak kasalligi tarixi va qanday qilib tugatilganligi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish. Tadqiqot materiallari va usullari: <https://www.who.int/> , <https://www.cdc.gov/smallpox/> , <https://www.who.int/news-room/spotlight/history-of-vaccination/history-of-smallpox-vaccination> , man‘balaridan foydalanildi va nazariy tahlil va statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Chin chechak – odam va hayvonlarning o‘tkir yuqumli kasalligi. Chin chechak infeksiyasini variola virusi qo‘zg‘atadi. Bu kasallik havo tomchi yo‘li va bemor foydalangan buyumlardan yuqadi. Chechakning alomatlari dahshatli: Dastlab yuqori isitma, qusish, og‘izdagi yaralar, tomoq, burun yallig‘lanishi 3-4 kundan keyin bemor birmuncha yaxshilanib, keyin yana og‘irlashishi. Butun badanga toshadigan mayda dog‘ga o‘xshash toshmalar paydo bo‘ladi, ertasiga ular ichiga yiring to‘lib, pufakchalar hosil bo‘ladi. 10-13 kundan keyin yiringli toshmalar qurib qoraqo‘tir hosil bo‘ladi. O‘lim to‘satdan keladi, ko‘pincha shu 2 hafta ichida omon qolganlar ko‘rlik va bepushtlikka duchor bo‘ladi. Chechak kasallangan har 3 kishidan kamida bittasini o‘ldiradi.

Chechak o‘tmishda miloddan avvalgi 1350-yilda boshlangan, bu holat shu yilga oid misr mumiyalarini o‘rganishda chechakka xos belgilar topilishi bilan bog‘liq. Bu kasallik 1000 yillar mobaynida millionlab odamlarni o‘ldiridi xatto 1520-yilda ispan va portugallar Amerikaga borganlarida chechakni o‘zlari bilan olib borganlar shu tufayli Aztek va Inka sivilizatsiyalarining deyarli 90% ini yo‘q bo‘lib ketishiga sabab bo‘lib qolganlar. 18-19 asrlar ga kelib, chechak dunyoning eng qo‘rqinchli kasaliga aylandi. Shu yillarda Yevropaning o‘zida yiliga 400.000 kishi chechakdan o‘lgan. Butun dunyo bo‘ylab epidemiyalarga sabab bo‘lib, taxminan 60 million kishini o‘limiga sabab bo‘lgan. Ammo ayrim man‘baalarda 1500-yillarda Xitoyda chechakka qarshi “insulfatsiya” usulidan foydalanilgan deyiladi. Bu usulda kasallik natijasida hosil bo‘lgan qoraqo‘tir olinib, quritilib mayda kukunga aylantirilgan va burun orqali puflab organizmga jo‘natilgan. Natijada, organizm kasallikni kuchsiz shaklini yengib, haqiqiy chechakka qarshi immunitet hosil qilardi. Ba‘zida infeksiya kuchli kechib, o‘limga olib kelgan, jarayon g‘ayrioddiy hisobanib hamma tomonidan qabul qilinmagan. Keyinchalik ingliz shifokori Edvard Jenner bu virusga qarshi chora topdi. Jenner yashagan payt chechak eng xavfli yuqumli kasallik edi. O‘sha paytda “insulfatsiya” usuli mavjud bo‘lib, lekin juda xavfli edi. Jenner

5-Fevral, 2026-yil

sog‘uvchi ayollarni kuzatar ekan, agar ular sigir chechagi (odamarda yengil kechadi) bilan kasallangan bo‘lsa, inson chechagiga chalinmas edi. Shu xulosaga asoslanib 1796-yilda u sog‘uvchi ayol Sarah Nelmesning qo‘lidan yiring oladi va shu yiringni 8 yoshli bola Jeyms Fipsning qo‘liga inyeksiya qiladi. Bolada biroz isitma va bezovtalik paydo bo‘ladi lekin tez tuzaladi. Keyin Jenner bolaga inson chechagi virusini kiritadi lekin bola kasal bo‘lmaydi va u xulosasi tog‘riligini anglaydi. Jenner bu usulni “vaksinatsiya” (lotincha vacca-sigir) deb atadi. Bu tibbiyotdagi yutuq ya‘ni birinchi vaksina bo‘ldi. O‘sha paytlar ko‘pchilik uning usulini rad etishdi xatto u usul odamlarni sigirga aylantiradi degan mish-mishlar ham tarqaldi. Ammo 1801 yilga kelib vaksina keng qamrovli sinovdan o‘tib, qit‘alarga tarqala boshladi va ba‘zi joylarda chechakka qarshi majburiy emlash kuchga kirdi. Emlash Yevropa mintaqalari, Yaponiya, Shimoliy Amerika chechakni butunlay yo‘q qilishga olib keldi. 1958-yil Jahon sog‘liqni saqlash assemblyasi butun dunyoda chechakni yo‘q qilish dasturini ishga tushirdi. Masalan, 1970-yilda Hindistonning janubi -g‘arbiy qismida chechak 1300 dan ortiq holatga va 123 kishi o‘limiga olib keldi. Bunga javoban xalqaro sog‘liqni saqlash xodimlari hududni bir hafta mobaynida uyma uy tintuv qilib, kasallanganlar bilan kontakt qilgan barchani emlashdi. 1977-yil 26-oktabr kuni Somali fuqarosi Ali Maosh Maalin chechak bilan kasallangan oxirgi inson sifatida qayd etilgan. 1980-yil Jahon Sog‘liqni Saqlash assambleyasining 33 sessiyasida yer yuzida chin chechak butkul tugatilganligi rasmiy ravishda e‘lon qilindi. Chechak odamlar tomonidan butunlay yo‘q qilingan eng xavfli va yagona kasallik hisoblanadi.

Xulosa: Chechak insoniyat tarixidagi eng xavfli va eng ko‘p qurbon olgan kasalliklardan biri bo‘lgan. Xitoyda paydo bo‘lgan “insulfatsiya” usuli ilk ilmiy yondashuv bo‘lgan va Jenner tajribasiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Insoniyat ilm-fani, vaksina yaratilishi va butun insoniyatning birgalikdagi sa‘y harakatlari tufayli 1000 yillar mobaynida dahshat solgan chechak kasalligiga barham berishga muvaffaq bo‘ldi.